

UDK: 811.512.133'373.7:398.9

OYOQ KIYIM, ULARNING QISMI VA O'RINLARI NOMLARI

Nurova Yulduz Ubaydullayevna,

BuxDPI Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

yulduznur.gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnolingvistikaning o'zbek xalq paremlarida oyoq kiyim, ularning qismi va o'rinlari nomlari to'g'risida nazariy ma'lumot berilgan. Etnolingvistika (jahon tilshunosligida antropologik lingvistika) "madaniy antropologiya" (lot. anthropos – odam) deb atalmish fanning mustaqil bir yo'nalishi bo'lib; til, folklor, etnografiya, tarix, madaniyatshunoslik, badiiy adabiyot, psixologiya va boshqa gumanitar fanlar qatorida yuzaga kelgan. Fanning mustaqil sohasi sifatida etnolingvistika "o'zining negizida, asosan, madaniyatni har tomonlama o'rganuvchi etnografik, lingvistik, arxeologik xususiyatlarni shakllantirgan, bugungi kunda muayyan xalqning urf-odatlarini, etnomadaniyatini lingvistik birliklar asosida o'rganuvchi mustaqil yo'nalishdir.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, etnos, tilshunoslik, neft nomi, mahsulot, til, madaniyat, etnolingvistika, maqol.

Аннотация. В данной статье представлены теоретические сведения об этнолингвистическом изучении названий обуви, её частей и элементов в узбекских народных паремиях. Этнолингвистика (в мировой лингвистике — антропологическая лингвистика) является самостоятельным направлением науки, известной как культурная антропология (от лат. anthropos — человек). Она сформировалась на стыке таких гуманитарных дисциплин, как языкознание, фольклористика, этнография, история, культурология, художественная литература, психология и другие науки. Как самостоятельная отрасль знания, этнолингвистика вобрала в себя этнографические, лингвистические и археологические подходы к комплексному изучению культуры. В настоящее время она представляет собой самостоятельное научное направление, исследующее обычаи, традиции и этнокультуру определённого народа на основе анализа языковых единиц.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнос, лингвистика, название масла, продукт, язык, культура, этнолингвистика, пословица.

Abstract. This article provides theoretical information on the names of shoes, their parts and places in the Uzbek folk tales of ethnolinguistics. Ethnolinguistics (anthropological linguistics in world linguistics) is an independent direction of the science called "cultural anthropology" (lat. anthropos - man); it arose along with language, folklore, ethnography, history, cultural studies, literature, psychology and other humanities. As an independent field of science, ethnolinguistics "is an independent direction that, at its core, mainly studies culture comprehensively, forming ethnographic, linguistic, archaeological features, and today studies the customs, ethnoculture of a particular people on the basis of linguistic units.

Keywords: ethnolinguistics, Ethnos, linguistics, Oil name, product, language, culture, ethnolinguistics, proverb.

Kirish. Etnolingvistika nisbatan yangi fan bo'lib, ba'zida yangi gumanitar bilim sohaslarida sodir bo'lgani kabi uning predmeti qamrovi ham aniq belgilanmagan, ya'ni voqelikning qanday elementlarini o'rganishi mavhumligicha qolmoqda. Avvalo aytish kerakki, etnolingvistika – bu tutashuvdagi fan. So'nggi o'n yilliklarda bilimning bunday chegaraviy sohalari ko'plab paydo bo'ldi, "tutashuvdagi fanlar"ning yuzaga kelishi hozirgi zamon fanining ham gumanitar, ham tabiiy fanlariga xos xususiyatdir. Etnolingvistika xalq hayotining ruhiy, madaniy, etnik xususiyatlari va ularning tilda aks etishini o'rganuvchi

tilshunoslik yoʻnalishi hisoblanadi. Jahon tilshunosligida ayrim olingan etnos til xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, xakas, boshqird, chuvash, qozoq, pomir tillari, voronej va kursk hududi dialektlari misolida milliy kiyim; oziq-ovqat; toʻy, dafn marosimlari nomlari etnolingvistik aspektida oʻrganilgan, har bir etnosning oʻziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oʻzbek xalq maqollarining leksik xususiyatlari M.Sadriddinova, sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonov, oʻzbek xalq maqollarining lison/nutq ixtilofidagi oʻrni va maʼnoviy-uslubiy qoʻllanilishi B.Joʻrayeva, rus-oʻzbek va qozoq tillari asosida maqollarning semantik-struktur xususiyatlari P.Bakirov, zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari D.Tosheva, oʻzbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari B.Joʻrayeva, oʻzbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari D.Turdaliyeva, oʻzbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollarining evfemizatsiyasi Sh.Qalandarovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Paremik birliklarning etnolingvistik xususiyatlarini antroposentrizm nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarbdir. Paremik birliklar oʻzbek tilida leksik, semantik, strukturaviy, lingvopoetik, lingvopragmatik, evfemik jihatdan yetarlicha oʻrganilgan boʻlishiga qaramay, etnosning maishiy hayot tarzini tavsiflovchi lingvistik birliklar, ularning etnolingvistik jihatlari maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni monografik planda oʻrganishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Yotdan yorugʻlik chiqmas, itdan *chorugʻlik*.

Choriq – qattiq xom teridan tikilgan, asosan, togʻlik rayon xalqlari orasida rasm boʻlgan oyoq kiyimi [136, 379]. Ushbu oyoq kiyim nomi ham Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida qayd etilganligi uning qadimiyligidan dalolat beradi: “Charuq – choriq. Maqolda shunday kelgan: *jaʼzagʻ atʼ charuq, koʻchiʼ azuq* – yayov oti choriq, kuchi, oziq, yaʼni yayov odamning oti uning chorigʻi va kuchi, quvvati ovqatidir”.

Choriq – “qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qoʻnjli, tagi qalin, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyimi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu ot asli *charuq* tarzida talaffuz qilingan. Qirgʻiz tilida bu ot *charыk* tarzida talaffuz qilinadi. L.Z.Budagov lugʻatida bu soʻz *chari, chaiq, charugʻ* shakllarida keltirilgan. **chari** – feʼli izohlangan erda shu feʼldan yasalma sifatida *chariq* soʻzi yana bir marta keltirilgan. Demak, *chariq* oti asli “oʻrab bogʻla” maʼnosini anglatgan *chari* – feʼlidan bunday feʼl qirgʻiz tilida ham mavjud. -q qoʻshimchasi bilan yasalgan: keyinchalik oʻzbek tilda **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yoʻqotilgan: *charы+ q = chariq > chäriq*. Choruq – togʻlik xalqlar kiyadigan oyoq kiyimi: “...va iliklarida tayoq va oyoqlaridan *choruq* va eginlarida *chopon erdi*”.

Mahsining poshnasi boʻlmas,

Nojinsning oshnasi boʻlmas.

Mahsi (massi) – mayin, pishiq qoʻy yoki echki terisidan tayyorlanadigan poshnasiz, baland qoʻnjli poyabzal. Hozirgi kunda kalta qoʻnjli turi ham mavjud. Tagcharm yalang

qavat va yumshoq bo'lgani uchun [kalish](#) yoki [kavush](#) bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi. Mahsi musulmon xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. Oyoqni sovuqdan asraydi, boldirni issiq tutadi. Mahsiga o'xshash oyoq kiyimlari tasvirini [Afrosiyob](#) devoriy rasmlarida (V–VIII asrlarga oid) ko'rish mumkin. Mahsi, asosan, 3 qismdan: qo'nj, boshliq (betlik) va tagcharmdan iborat. Qo'nj terisi qalinroq olinadi, yupqa teridan tikilsa, qalin qattiq matodan astar tikiladi. Kimga mo'ljallanganligiga (jins va yoshiga) qarab *mardona* (katta yoshdagi erkaklar uchun), *zaifona* (katta yoshdagi ayollar uchun), *bachkana* (bolalar uchun) mahsilar farqlanadi. Terining xillariga ko'ra, amirkon mahsi, bedana mahsi, go'spandi mahsi (qo'y terisidan), xirom mahsi, bulg'ori mahsi (mol terisidan) va boshqa turlari bor. Mahsi, odatda, qora tusli bo'ladi, lekin [Xorazmning](#) ba'zi tumanlarida ayollar to'yga qizil mahsi kiyishgan [163].

O'zbek xalq maqollarida *mahsi* so'zining *ichik* ko'rinishi mavjudligi ham aniqlandi:

Ichigin ayagan qo'lontoyoq yurar.

Ichik – mahsi. Qo'lontoyoq yurmoq – mahsi kiymay, kavushning o'zini kiyib yurmoq.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham, “Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”da ham, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham, “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da ham *ichik* atamasi izohlanmagan. Faqatgina maqol tarkibida ushbu so'z saqlanib qolgan.

Sag'irning eshigidan o'tsang, chang yuqsa, *kavushingni* qoqib o't.

Kavush – [f-t kafsh] Charmdan tikilgan, odatda, mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi .

Kavush – bu ot asli *kafsh* tovush tarkibiga ega bo'lib, o'zbek tiliga *f* tovushini *v* tovushiga almashtirib, *-vsh* tovushlari oralig'iga *u* tovushini kiritib qabul qilingan; “boshlig'i qattiq charm bilan tikilgan oyoq kiyimi” ma'nosini anglatadi. O'zbek so'zlashuv tilida bu ot tarkibidagi *a* tovushi *v* tovushi ta'sirida *o*(\ddot{a}) aytiladi .

Kavush (fors) – poyabzal turi; odatda mahsi bilan yoki sarpoychang kiyiladigan oyoq kiyimi. Kavush betlik, jag', dastak, tagcharm va poshnadan iborat. Kalish shaklida, dastagi va jag'i kalishga nisbatan ensiz. Baland va past poshnali bo'ladi. Kosiblar tomonidan erkaklar (*mardona*), ayollar (*zaifona*), bolalar (*bachkana*) kavush xillari tayyorlanadi.

Ko'rinadiki, xalqimizda mahsining *mardona*, *zaifona*, *bachkana* turlari farqlangani singari kavushning ham xuddi shunday: erkaklar, ayollar va bolalar uchun tikilgan turlari mavjud bo'lgan.

Paremalarda *kovushning ukpa kavush* variant ham muqimlashganligi aniqlandi.

Amirkon mahsiga – *ukpa kavush*.

Ukpa kavush – ukpa – sifati past teri .

Ukpa – mayin yupqa charm.

Maqol o'ziga yarashliq kiyim kiymaydigan va pardoz qilmaydigan olifta-satanglarga, o'ziga nomunosib ishlar, *bachkana*, yoqimsiz, kishining g'ashiga teguvchi, ensasini

qotiruvchi xatti-harakatlar qiladigan odamlarga nisbatan kinoya, mazax-masxara, istehzo tarzida qo‘llanadi.

O‘yin bilmaganga etik *qo‘nji* bahona.

Qo‘nj – etik, mahsi va shu kabi oyoq kiyimlarining boldirini, ilikni o‘rab turadigan yuqori qismi [137, 408]. *Qo‘nj* so‘zi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlab hech bir lingvistik lug‘atlarda izohlanmagan.

Zamona ozganidan – yoqalar bo‘ldi etak,

Bo‘z – *paytava* bo‘ldi, boshga chiqdi *patak*.

Paytava – [f-t – oyoqni qizituvchi, isituvchi] qo‘njli poyabzal kiyganda oyoqqa o‘raladigan mato [137, 568].

Paytava – bu tojikcha ot “*oyoq*” ma’nosini anglatadigan *pay* oti bilan “*o‘ra*” – ma’nosini anglatgan *toftan* fe’lidan hozirgi zamon asosiga teng bo‘lib, “*o‘rash*” ma’nosini anglatgan *tob* otidan tuzilgan birlikka -a qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan, tojik tilida birinchi o(â) tovushi a tovushiga almashtirilgan *paytoba* shakli o‘zbek tiliga ob tovushlarini av tovushlariga almashtirib olingan; “qo‘njli poyabzal kiyganda oyoq panjasi bilan boldirga o‘raladigan mato” ma’nosini anglatadi [118, 181].

Patak – oyoq kiyimi ichiga qalin va yumshoq matodan qirqib solinadigan to‘shama [134, 236].

O‘zbek xalqi kundalik turmush tarzida *patak* va *paytava* atamaları yonma-yon qo‘llanganligini iboralarda ham kuzatish mumkin: Patagiga qurt tushdi, paytavasiga qurt tushdi.

Yaxshi xotin terini *ulton* qiladi, erini sulton qiladi.

Uhton – qoramol terisidan tayyorlangan charm; tagcharm [135, 272].

Uhton – qoramol terisidan tayyorlangan charm; tagcharm; oyoq kiyimlarga tagcharm qilinadigan, kavushning ichiga solinadigan charm [134, 228].

P.SHamsiyevning “Navoiy asarlari lug‘ati”da bu so‘z ultong shaklida ham uchraydi: “Ultong – charm, etik charmi, ulton” [123, 624]. Demak, ajdodlarimizda bu so‘zning ikki xil variant qo‘llangan. Izohlardan ko‘rinadiki, ulton kovush hamda etik ichiga solinadigan qoramol terisidan tayyorlangan charm sifatida patak vazifasini bajargan. Faqatgina farqi shundaki, patak qalin va yumshoq matodan tayyorlangan.

Ko‘kdan kigiz yog‘sa ham, qulga *ultaroq* tegmaydi.

Ultaroq – oyoq kiyimlariga solinadigan kigiz patak [125, 191].

Maqollarni kuzatish shunday xulosa olib keladiki, o‘tmishda oyoq kiyimlari ichiga solinadigan va namdan himoya vazifasini bajaradigan oyoq kiyimi qismi tayyorlanish manbasiga ko‘ra turli xil nomlangan. Jumladan, *ultaroq* kigizdan tayyorlangan.

Maqolda har qancha to‘kinchilik bo‘lsa ham baribir kambag‘al mehnatkashlarning rizqi ozligicha qolaveradi, degan mazmun ifodalangan [125, 192].

Ikki ovsinning kavushi *kavushandoz*da chatishadi.

Kavushandoz [f-t]. Uning oyoq kiyimini echib qo'yiladigan eri, dahliz [136, 357].

O'zbek xalq paremalarida oyoq kiyimlari nomi va ular echiladigan joy nomi sifatida quyidagi etnolingvistik birliklar uchraydi: *choriq, etik, mahsi, kavush, ichik, kavushandoz*.

Bundan tashqari oyoq kiyim qismlari va oyoqqa o'raladigan predmet nomlari ham milliy mental xususiyatga ega bo'lib, kulturema vazifasini bajaradi: *paytava, ulton, ukpa, ultaroq, patak* va h.k.

Xulosa va takliflar. Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to'plash vositasi hisoblanadi. Xalqning mentalitetini o'zida aks ettirgan, madaniyatning ajralmas qismi va tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, bebaho ma'naviy boylik sanalgan maqollar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент, 1981.92 б
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари.-Т., 1992. 316 б.
3. Alisher Navoiy. Туууқлар. -
4. Артеменко М., Фольклорное текстообразование и этнический менталитет //Традиционная культура. Научный альманах. 2001. №2 (4). С. 11-17.
5. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – М.: “Наука”, 1983. – 412. С 57-58
6. Булатова Н. Д., Этнолингвистика в системе профессиональной подготовки специалистов по народной художественной культуре. Москва. 2003. 162 с.
7. Bekmatova D.A. Do'stlik hamda qarindosh- urug'chilik mavzusi bilan bog'liq turkcha maqollar semantikasi. T.,- 2012.- 47 b
8. Бегматов Э. Мадвалиев Н. Маҳкамов Н в.х. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва. 1981.140 б
9. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М., 1985. – 452 с
10. Жўраева Б.М.Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари.- Самарқанд., 2019. –83 б